



Vebsayt: <http://2ndsun.uz/index.php/yt>

SOHIBQIRON SALTANATIDA MADANIYAT VA SAN'ATNING O'RNI

Karimova E'zoza Nuriddin qizi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Mo'minmirzo Xolmo'minov Zokir o'g'li

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti o'qituvchisi

INFO:

Qabul qilindi: 27.03.2022

Ko'rib chiqildi: 28.03.2022

Chop etildi: 31.03.2022

Kalit so'zlar: *madaniyat homiysi, tug' va nog'ora, xonandalar mavzesi, sozandalar mahallasi, bastakorlar ko'chasi, Uchinchi Renessans, duvozdahmaqom, shashmaqom, cholg'u jamoalari*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Amir Temur shaxsiyati, uning markazlashgan davlatga asos solishi, shuningdek Amir Temur davlatida san'at va madaniyatning gullab yashnashi, xususan, bu davrda maqom san'atining rivojlanishi, Temurning san'at ahliga ko'rsatgan beqiyos homiyligi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Yosh avlodni Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans g'oyalari ostida tarbiyalashda shonli tariximizdagi buyuk siymolarning o'rni va ahamiyatiga urg'u berilgan.

Copyright © 2022. [Creative Commons Attribution 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/)

O'zbek davlatchiligi tarixida muhim o'rin egallaydigan, sharq renessansining shonli davrlariga tamal toshini qo'ygan bir zot borki, u ham bo'lsa butun jahonga mashhur hazrati Sohibqironidir. Tobora rivojlanib borayotgan Yangi O'zbekistonning tarixini, uning madaniyatini yanada teranroq kashf etmoqchi bo'lgan har qanday o'quvchi bu buyuk hukmdorning faoliyatini o'rganmasdan o'z maqsadiga erisha olmaydi, nazarimda.

Sohibqiron Amir Temur bobomizni jahon sahnasiga olib chiqdi va Temuriylar Renessansi, Ikkinchi uyg'onish davri g'oyasi va xalqimizning bunyodkorlik faoliyatiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Markazlashgan qudratli davlat va qonun ustuvor bo'lgan adaolatli jamiyat g'oyasida mujassam bo'ldi.

Aynan xalq armonini ro'yobga chiqarishga bo'lgan intilish Amir Temur ibn Tarag'ay Bahodir

davrida nafaqat mamlakat mustaqilligini ta'minlash, balki qudratli davlat barpo etish, iqtisodiyot, madaniyat, san'at va ilm-fan sohalarini rivojlantirishga xizmat qildi. [1:17]

Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov 1993-yil 31-avgustda Toshkentda Amir Temur haykalining ochilishiga bag'ishlangan tantanada ham biz orzu qilgan buyuk davlatni bunyod qilish barchamizdan mustahkam iroda, iymon-e'tiqod, milliy g'urur tuyg'usi va buyuk ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy bisotga ega bo'lishimizni talab qilishi haqida so'z yuritgan edilar. Binobarin, tariximizda mashhur jahongirlar juda ko'p o'tgan. Lekin Amir Temurdek buyuk sarkarda, Amir Temurdek ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat homiysi shu bugungacha xalqimiz dahosining timsoli, ma'naviy qudratimizning ramzi bo'lib kelmoqda. 1996-yilda Yevropaning qoq markazi bo'lmish Parijda tarixning o'zi yaqqol ko'rinib turgan ma'rifat, ilm-fan, san'at va abadiy go'zallik shahrida "Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat va maorifning gullab yashnashi" haftaligi o'tkazilishining o'ziyoq Amir Temur davlatining jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rnini belgilab beradi. Temuriylar davri haqiqatdan ham ilm-fan, madaniyat va maorifning behad ravnaq topishini taminlagan Sharq uyg'onish davri edi. [2:6] Temuriylar davrini ba'zan temuriylar Renessansi deb ham atashadi. [3:165]

Bilamizki, Temur davlatining qurilishi va harbiy qudrati asrlar davomida Sharq-u g'arb davlatlariga o'rnak bo'lib kelmoqda. Ammo yana shuni takidlash joizki, Temuriylar davridagi madaniyat, ilm-fan, me'morchilik, tasviriy san'at, musiqa va she'riyat yanada rivoj topdi, shuningdek buyuk Sohibqironning madaniyat va din ahllariga ko'rsatgan cheksiz mehr-muruvvati g'oyat ibratlidir. Amir Temur ijtimoiy faoliyatining sermahsul natijalari, ayniqsa, madaniyat va ilm-fan sohalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Adabiyot va she'riyat, amaliy san'at, musiqa va tomosha san'ati saltanatda alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Xususan, o'zbek xalqi musiqasi bilan birga harbiy-rasmiy musiqa turlari, mumtoz maqom san'ati, mintaqaning boshqa turkiy hamda arabzabon, forsiy xalqlarining musiqaviy folklori, bastakorlarning o'ziga xos ijodi ham rivoj topdi. Eng ahamiyatlisi, Amir Temur saltanatida cholg'u asboblari davlat ramzi, kuch qudrat va bahodirlik timsoliga aylangan. [4:198]

Amir Temurning piri Sayyid Baraka tomonidan unga ruhiy madad sifatida tug' bilan birga nog'ora taqdim etilgani [5:114] buning ilk isbotidir. Temur o'z tuzuklarida shunday deydi: "Amr qildimkim, o'n ikkita katta amrlarning har biriga bitta bayroq va bir nog'ora berilsin. Amir ul-umaroga bayroq va nog'ora, tuman tug'i va chortug' taqdim etsinlar. Mingboshiga bir tug' va karnay bersinlar. Yuzboshi va o'n boshiga bittadan katta nog'ora bersinlar..." Qizig'i shundaki, Sohibqiron bu tadbiri bilan oddiy xalq orasida keng tarqalgan milliy cholg'u asboblari qonuniy ravishda hokim va lashkarboshilarning ijtimoiy va harbiy mavqeini belgilab beruvchi davlat timsoliga aylantirdi. Shahar aholisining turli qatlamlaridan kelib chiqib, saltanatda "xonandalar mavzesi", "sozandalar mahallasi", "bastakorlar ko'chasi" joriy etilishi, mahsus ijod va ijro borasida ijodiy maktablar shakllangani ham mamlakatda bu kasb egalarining obro' va nufuzini ma'lum darajada ko'rsatib beradi.[6:198]

XIV-XV asrlarning mashhur musiqachisi Xoja Abdulqodir Marog'iy ham o'z umri va ijodining ko'p qismini Temur saroyiga bog'lagan. Marog'iyning yuksak qobiliyatidan xabar topgan Temur 1993-yilda uni Bag'doddan Samarqandga olib kelgan.[7:199] Bu yerda unga ijod etishi uchun barcha sharoitlar yaratib bergan. Taraqqiyotning chinakam samarasi boylik yoki kuch qudrat darajasi bilan emas, milliy madaniyatning naqadar yuksakka ko'tarilgani bilan o'lchanadi.[8:23] Masalan ingliz san'atshunos olimi Fillipson Martin "Temuriylar singari san'ati va madaniyatini qadrlaydigan hukmdorlar Markaziy Osiyoda hech vaqt bo'lmagan",-deb yozadi. Amir Temur olimlar, ulamolar,

shoirilar va san'atkorlarni o'z himoyasiga olar ularga g'amxo'rlik qilardi. Uning ushbu harakatlari ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, unga ilm va san'at ahli posboni, yuksak darajada madaniyatli hukmdor degan shuhrat keltirdi.[9:9] Darhaqiqat, O'zbek davlatchiligida san'at ahliga bo'lgan e'tibori o'sha davrlardayoq shakllanib ulgurgan desak to'g'ri bo'ladi. Balki, shuning uchun ham aynan shu davrda, milliy mumtoz san'atimiz gulto'ji bo'lgan monumental maqomlar tizimi "Shashmaqom"ning shakllanishi mantiqiy nihoyasiga yetgandir. Albatta, bu jarayonga, ya'ni "Olti maqom" turkumining maydonga kelishiga adabiy "Xamsa"larning ta'sir ko'rsatgani ehtimoldan xoli emas. Bilamizki, XIII-XV asrlar Nizomiy Ganjaviy, Husrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar tomonidan barcha turkiy xalqlar adabiyotini yuksakka ko'targan. Ilk davrda mazkur "Xamsa"larning zamondoshi bo'lmish "Duvozdahmaqom" butun Yaqin va O'rta Sharq xalqlari madaniyatiga birday xos bo'lgan va "Shashmaqom"ning shakllanish jarayonida asos bo'lib xizmat qilgan. Temuriylar davridan boshlab esa bu jarayonga mahalliy hislatlar ta'sir eta boshlagan. Natijada yaxlit tizimdan muayyan darajada ajralgan, milliy xususiyatlarga ega bo'lgan turkum asarlar shakllana boshlagan. Birlamchi tizimdan farqli o'laroq, ularda tuzilish kompozitsiya jihatidan hamda soniga ko'ra erkinlik ustuvor bo'ladi. Shu alfozda 12 ta arab maqomi, 12 ta uyg'ur maqomi, 7 ta eron dastgohi, 7 ta ozarbayjon mug'omi, 6 ta o'zbek va tojik maqomi yuzaga keldi. Bu turkumlar ham o'z navbatida mahalliy musiqiy sheva ta'sirida yangi mukammal turkumlar yaratilishiga turtki bo'ldi. Shu tariqa o'zbek zaminida Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, turli-tuman ko'p qismli cholg'u asarlari yuzaga keldi.[10:200] Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sig, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur asarlariga ishlangan bir qancha miniatyuralarda ham sozandalar, katta va kichik cholg'u jamoalari aks etgan. Shuningdek bu davrda cholg'u, bastakorlik, musiqa tarixi va nazariyasi kabi yo'nalishlar bilan birga raqs san'ati, ayniqsa, erkaklar ijro etadigan raqslar taraqqiy etadi. Shuningdek tarixiy malumotlarda san'atkorlar orasida ayol sozanda, raqqosa, va qissago'ylar ham bo'lib ular bilan bir qatorda bayramlarda, namoyishlar va marosimlarda qatnashganligi haqida ham qator ma'lumotlar uchraydi.

Amir Temur maqom kuylarini tinglashni, muayyan ma'noli va tarbiya quvvatiga ega bo'lgan tomoshalarni xush ko'rgan. San'at asarlari, tomosha va bayramlar aholi va xalqlarni birlashtirishini istagan. Amir Temur buyuk davlatning hukmdori sifatida madaniyatga e'tibori yuksakligi tahsinga sazovor, albatta. Taniqli fransuz olimi Marsel Brion ham Amir Temur davlati tarixini tadqiq qilish davomida buyuk Sohibqironning madaniyatni cheksiz hurmat qilgani va ilm-fan muammolariga chuqur yondashganini aytib o'tadi

XIX asrning mashhur sharqshunosi, vengriyalik olim Herman Vamberi Amir Temur haqida shunday deydi: "Amir Temur hukmronligi, shak-shubhasiz, Oks(Amudaryo)ning narigi tomonidagi mo'jaz yer uchun ajoyib davrni tashkil etdi va turkiy xalqqa shunday quyosh ato etdiki, uning nurlaridan bugungi kunda ham ko'plab qabilalar bahramand bo'lmoqdalar". Darhaqiqat, shonli tariximizning zabardast vakili bo'lmish Amir Temur va uning islohotlari haqida qancha o'rgansak shuncha kam. Bugun mustaqil davlatimizda ham aynan o'sha islohotlarning kurtaklarini kuzatishimiz mumkin. Xususan buni yaqin kunlarda chiqarilgan qator farmon va qarorlar ham tasdiqlaydi. Ulardan inson qalbining kaliti bo'lmish san'at va madaniyatga e'tibor kuchayotgani anglab olish mushkul emas nazarimda. Shunday ekan, yaratilayotgan sharoitlardan oqilona foydalanish, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, tomirlarimizda shunday ulug' bobolarimizning qoni oqar ekan, ularning munosib vorislari bo'lish, ular kabi yuksak maqsadlar sari intilib yashash barchamizning ezgu burchimizdir. Fransuz tilida nashr etilgan "Temur tuzuklari" kitobiga yozilgan so'zboshida

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Kornelning “Sid” nomli tragediyasidan “Nimadir yetilishi uchun vaqt kerak” degan ibratli soʻzni aytib oʻtadi.

Yangi Oʻzbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini qurishda – avvalo, buyuk tariximizning shonli salnomasidan, babolarimizning boshlab bergan ulugʻ yoʻlidan borish yuksak shonu-sharafdir. Amir Temurdek jahon taraqqiyotiga katta hissa qoʻshib, bashariyatni yaxshilikka daʼvat etgan bobolarimizni biz yoshlar ruhan his qilib, undan dalda olamiz. Kelajagimizning yorugʻ istiqbolini tuyamiz. Yangi Oʻzbekistonimizning madaniyati va sanʼati vamisoli temuriylar davrida gullab yashnagani kabi, Yangi Oʻzbekiston tarixida ham zarvaorli sahifa qoldirishiga ishonamiz. Prezidentimiz taʼbiri bilan aytganda: “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulugʻ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boylıklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va sanʼatimiz ham albatta boʻladi”. [11:56]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2021. – B 464.
 2. I. Karimov. Amir Temur haqida soʻz.-T.: Oʻzbekiston, 1996.-62 bet
 3. Asqarov A. Temur va Ulugʻbek davri tarixi. – Toshkent:Qomushlar bosh tahririyati. 1996-yil. 264 bet
 4. S.Saidqosimov, A.Axmedov, B.Axmedov va boshqalar. Amir Temur jahon tarixida //.-T.: “Sharq” 2006- 336 b
 5. A. Muhammadjonov. Oʻzbekiston tarixi: 7-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan uchinchi nashr //.-T.: “Sharq”, 2017. – 160 b.
 6. S.Saidqosimov, A.Axmedov, B.Axmedov va boshqalar. Amir Temur jahon tarixida // -T.: “Sharq” 2006- 336 b
 7. Oʻsha manba: 199-b
 8. A.Haydarov. Madaniyat va sanʼat sohasini boshqarish asoslari: oʻquv qoʻllanma//.-T.: “Kamalak” nashriyoti, 2009,-192 bet
 9. Marsel Brion. Amir Temur. //A.Qodiriy.-Toshkent: “Nurafshon business” nashriyoti, 2020 - 248 bet
 10. S.Saidqosimov, A.Axmedov, B.Axmedov va boshqalar. Amir Temur jahon tarixida //.-T.: “Sharq” 2006- 336 b
- Haydarov A. Madaniyat – milliy yuksalish poydevori. – Toshkent: Oltin meros press. 2021. – B. 478.